

Bayramingiz muborak, aziz Ustozlar!

Nodirbek Qo'shboqov,

TTPU MI 2–bosqich talabasi

“... Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz”.¹ Ushbu gapda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov barcha o'zbek xalqining yosh-u qarisiga qarata aytganligini, ustozlarni doimo ardoqlashimiz, qayerda bo'lmaylik ularning bergan ta'lim-tarbiyasini oqlashga harakat qilish kerakligini ta'kidlab o'tgan edilar. Zero, bu yorug' olamda har bir odam o'zining mehribon ota-onasiga, ustoz va muallimlariga nisbatan hamisha minnatdorchilik tuyg'usi bilan yashashi zarur. Inson o'z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab va boshqa dargohlarda olgan ta'lim-tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasizdir.

Ustoz! Shu birgina so'z zamirida olam-olam ma'no mujassam. O'qituvchi – sofdil, kamtarin, ma'naviy boy, ahloqan pok insondir. Ularning poyiga guldastalar sochsak, doimo hurmatlarini ado etib, ardoqlasak arziydi. Chunki ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarni o'z shogirdlariga baxshida etgan zahmatkash insonlardir.

Biz yurtimizda 1 – oktabr sanasini “O'qituvchilar va murabbiylar kuni” sifatida umumxalq bayrami deb e'lon qilganimizning chuqur ma'nosi bor, albatta. Bu bayram

¹ I.A.Karimov, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, T., “Ma'naviyat”

avvalo o'zining bilim va tajribasi, iste'dod va mahorat, insoniy fazilatlarini, ko'z nuri va qalb qo'ri, butun borlig'ini ayamasdan, ma'rifat yo'lida beminnat xizmat qiladigan ustoz va murabbiylarimizga nisbatan xalqimizning hurmat-ehtiromining namunasidir.

Kelajak avlodni bilimli, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazishda ustoz va murabbiylarning hissasi benihoya kattadir. Bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxs hamda yoshlarning bilim cho'qqilari, yuksak ma'naviyat sari yetuk insoniy fazilatlar sohibi bo'lishiga da'vat etadigan chinakam murabbiy sifatida faoliyat yuritishini hayotning o'zi talab etmoqda.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasi, kamoloti haqida qayg'urish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir. Shu sababli o'qituvchi va murabbiylar yurtimizda sharafli kasb egalari sifatida har doim hurmat va e'tibordadir. O'qituvchi bugun o'zi ta'lim berayotgan shogirdining kamoloti ila kelajakka poydevor qo'yadi. Yosh avlodni komillik va kamolot cho'qqisiga o'qituvchi – ustoz boshlab boradi. Donolarning aytishicha, elni ma'rifat asraydi. Shunday ekan, ustozlar zimmasiga kelajagi buyuk davlatning komil, har tomonlama barkamol vorislarni yetkazib berishdek yuksak vazifa yuklangan.

XXI asrga kelib dunyoning barcha mamlakatlarida axborot texnologiyasi rivojlanishi natijasida ustozlarimizning o'qitadigan hamda o'rgatadigan amaliy ishlarining aksariyat qismi zamonaviy texnologiyalar tomonidan bajarilmoqda. Biroq, bizning tinib-tinchimas ustoz va murabbiylarimiz zamon bilan hamnafas bo'lib yashash, kelgusida yoshlarga barcha bilimlarni mukammal qilib o'rgatish maqsadida harakat qilib, chet tillarini mukammal o'rganib, ilm-fan sohasiga kiritilayotgan yangidan-yangi ababiyot va materiallarni chuqur o'zlashtirishni o'z oldilariga maqsad qilib, erta-yu kech tinim bilmasdan harakat qilishmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan xalqaro miqyosdagi bir qator mamlakatlarning nufuzli Oliy o'quv yurtlari (Italiyaning Turin Politehnika universiteti, Koreyaning Inha universiteti, Angliyaning Xalqaro Vestminster universiteti va boshqa qanchadan-qancha universitetlar)ning poytaxtimiz – Toshkent shahrida ochilishi natijasida ko'plab ustozlarimizning doimiy ravishda xalqaro davlatlarga borib malaka oshirib kelishlari, kerak bo'lsa o'sha mintaqalardagi oliygohlarda soatlab ma'ruzalar o'qib kelish imkoniyatlari yaratildi. Ularning o'zlashtirgan jamiyki bilim va ko'nikmalari endilikda vatanimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodlarga nafaqat o'zbek tilida, balki, chet tillari(ingliz, ispan, fransuz, arab, yapon, rus tillari)da chuqur o'rgatilib kelinmoqda.

Xalqimizning buyuk farzandi bo'lmish – Islom Karimov o'zining asarida: “Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday mas'uliyatli sohaga bag'ishlagan ko'plab iste'dod sohiblari bo'lmish ustozlarning yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlab, komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda”² – deya aytib o'tgan edilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, aziz xalqimizning bir naqlida : « Sen odamlarga bir yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, bug'doy ek, o'n yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, ta'lim – tarbiya ber » - deyilgan. Olamning gultojsi inson bo'lsa, ularning orasida suyuqliki ustoz – muallimdir. Ustozlar haqida so'z ketganda beixtiyor beg'ubor bolaligimiz, orzu-intilishlarga to'la bolalik yillarimiz, ilk bora qo'limizga qalam tutqazgan birinchi o'qituvchimiz ko'z oldimizda gavdalanadi.

Bizlarning har bir savolimizga chuqur e'tibor va bosiqlik bilan javob beruvchi, elning nazaridagi inson birinchi navbatda – muallimdir. Biz – O'zbekiston yoshlari siz ustozlarga bugun qo'limizni ko'ksimizga qo'yib tashakkurlar aytamiz !

² I.A.Karimov, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, T., “Ma'naviyat”